

Foydalanuvchi
yo'riqnomasi

LG-ning raqamli eshittirish tizimlari (SIGNAGE MONITORI)

Iltilmos, televizoringizdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ying.

L15

MUNDARIJA

MONITORDAN FOYDALANISH..... 3

- Kiritish ro'yxatidan foydalanish..... 3
- Tasvir formatini sozlash..... 3

KO'NGIL OCHISH..... 5

- Tarmoqdan foydalanish..... 5
 - Tarmoqqa ulanish
 - Tarmoq holati
- Mening mediamdan foydalanish 7
 - USB saqlash qurilmalarini ulash
 - Fayllarni ko'rib chiqish
 - Kinolarni ko'rish
 - Fotosuratlarni ko'rish
 - Musiqinglash
 - arkiblar ro'yxatini ko'rish

PARAMETRLARNI O'ZGARTIRISH..... 20

- Asosiy menyularga kirish 20
 - TASVIR parametrlari
 - AUDIO parametrlari
 - VAQT parametrlari
 - PARAMETR sozlanmalari
 - TARMOQ parametrlari
- Rasm identifikatori parametrlari 30

IQ KODLAR 31

BIR NECHA MAHSULOTNI BOSHQARISH 33

- Kabelni ulash 33
- RS-232C konfiguratsiyalari 34
 - 4P kabeli
 - RS-232C kabeli
- Aloqa parametrlari..... 34
- Ma'lumot uchun Buyruqlar ro'yxati 35
- O'tkazish / Qabul qilish protokoli..... 37

Ochiq manba dasturi eslatmasi

GPL, LGPL, MPL va ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan boshqa ochiq kod litsenziyalari ostida manba kodini olish uchun <http://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.

Ochiq turdagi kodlarga qo'shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarning rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to'g'risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif mahsulotni yetkazib berilgandan so'ng uch yil ichida amal qiladi. Bu taklif ushbu ma'lumotni olgan har kim uchun amal qiladi.

MONITORDAN FOYDALANISH

Kiritish ro'yxatidan foydalanish

- 1 **Input List (Kiritish ro'yxati)**-ga kirish uchun **INPUT**-ni bosing.
- 2 Kirish rejimlaridan biriga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.

- RGB-PC
- HDMI
- HDMI2
- DVI-D
- USB
- Display Port
- OPS



ESLATMA

- Ma'lum modellarda ayrim kirish signallari mavjud bo'lmashligi mumkin.

Tasvir formatini sozlash

Tasvirni uning eng yaxshi hajmida ko'rish uchun monitorda ko'rayotganingizda ARC tugmasini bosish orqali tasvir hajmini o'zgartiring.

Aspect Ratio (Nisbat ko'effitsiyenti)	REJIM	RGB	HDMI		DVI-D		Display Port		OPS	
		ShK	DTV	ShK	DTV	ShK	DTV	PC	DTV	ShK
16:9		O	O	O	O	O	O	O	O	O
Just Scan (Aniq tasvir)		X	O	X	O	X	O	X	O	X
Set By Program (Dastur tomonidan o'rnatilgan)		X	O	X	O	X	O	X	O	X
4:3		O	O	O	O	O	O	O	O	O
Zoom (Masshtab)		X	O	X	O	X	O	X	O	X
Cinema Zoom1 (Kinematografik yiriklashtirish 1)		X	O	X	O	X	O	X	O	X



ESLATMA

- Siz yana asosiy menyularga kirish orqali tasvir hajmini o'zgartirishingiz ham mumkin.
- Aniq tasvir rejimi video signal 720p yoki undan yuqoriroq bo'lgan yechimga o'rnatilganda ishlaydi.



EHTIYOT BO'LING

- Agar harakatlanmaydigan tasvir ekranda uzoq vaqt namoyish qilinsa, u ekranga qotib qoladi va ekrandagi doimiy fizik nuqs+onga aylanadi. Bu ekranning kuyishi yoki qoldiq tasvirdir, va u kafolat bilan qamrab olinmaydi.
- Agar monitordan foydalanmasangiz, quvvat ta'minotini o'chirib qo'ying yoki qoldiq tasvir hosil bo'lishining oldini olish uchun ShKdan yoki tizimdan ekran saqlagichi dasturini o'rnatish.
- Agar nisbat ko'effitsiyenti uzoq vaqt 4:3 ga o'rnatilsa, ekranning hoshiya sohasida qoldiq tasvir hosil bo'lishi mumkin.

- **16:9** Bu tanlanma sizga butun ekranni to'ldirish uchun tasvir hajmini gorizonta'l yo'nalishda chiziqli nisbatda o'zgartirishingizga imkon beradi (4:3 formatli DVD-larni ko'rish uchun foydali).
- **Just Scan (Aniq tasvir)** Bu tanlanma sizga yuqori aniqlikdagi tasvirlardagi asl tasvirni yo'qotmasdan eng yaxshi sifatda tasvirni ko'rishingizga imkon beradi. Eslatma: Agar asl tasvirda xalaqitlar mavjud bo'lsa, siz xalaqitlarni qirralarda ko'rishingiz mumkin.
- **Set By Program (Dastur bo'yicha o'rnatish)** Kiritish signaliga bog'liq ravishda ekranning nisbat koefitsiyenti 4:3 yoki 16:9-ga o'zgaradi.
- **4:3** Bu tanlanma sizga tasvirni asl 4:3 tasvir formatida ko'rishingizga imkon beradi, ekranning chap va o'ng tomonlarida qora polosalar paydo bo'ladi.
- **Zoom (Masshtabini o'zgartirish)** Bu tanlanma sizga tasvirni hech qanday o'zgarishlarsiz, butun ekranni to'ldirgan holda ko'rishingizga imkon beradi. Biroq tasvirning tepasi va quyi qismi qirqiladi.
- **Cinema Zoom1 (Kinematografik yiriklashtirish 1)** Tasvirni to'g'ri nisbatda kattalashtirmoqchi bo'lsangiz, Kinematografik yiriklashtirishni tanlang. Eslatma: Tasvir kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilganda tasvir buzilishi mumkin.

KO'NGIL OCHISH


Tarmoqdan foydalanish

Tarmoqqa ulanish

Simli tarmoqqa ulanish uchun displeyni LAN porti orqali quyidagi diagrammada ko'rsatilgani kabi mahalliy tarmoqqa (LAN) ulang. Keyin tarmoq parametrlarini o'rnatish. Simsiz tarmoqqa ulanish uchun Wi-Fi USB modulini USB portiga ulang. Keyin tarmoq parametrlarini o'rnatish.

Fizik ulanishni amalga oshirgandan keyin kam sondagi uy tarmoqlari displey tarmog'i parametrlarining sozlanishini talab qilishi mumkin. Ko'pchilik uy tarmoqlari uchun displey hech qanday sozlashsiz avtomatik ravishda ulanadi.

Batafsil ma'lumotlar olish uchun internet provayderingizga murojaat qiling yoki marshrutizator qo'llanmasiga qarang.



Tarmoq parametrlarini o'rnatish uchun: (Hattoli displey avtomatik ravishda ulangan bo'lsa ham, o'rnatishni qaytadan ishga tushirish hech narsaga zarar yetkazmaydi),

Simli tarmoqqa ulanish

- 1 Asosiy menyuga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 **NETWORK (TARMOQ)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 3 **Network Setting (Tarmoqni sozlash)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing **OK** tugmasini bosing.
- 4 Agar siz allaqachon tarmoq parametrlarini o'rnatgan bo'lsangiz, **Resetting (Qayta sozlash)**-ni tanlang. Yangi ulanish parametrlari joriy tarmoq parametrlarini qaytadan o'rnatadi.
- 5 **IP Auto Setting (IP-ni avtomatik o'rnatish)** yoki **IP Manual Setting (Qo'lda IP o'rnatish)**-ni tanlang.
 - **IP Manual Setting (IP-ni qo'lda o'rnatish)** yo'naltiruvchi va raqamli tugmalarni bosing. IP-manzillarni qo'lda kiritish kerak bo'ladi.
 - **IP Auto Setting (IP-ni avtomatik o'rnatish)** Agar simli ulanish orqali mahalliy tarmoqda (LAN) DHCP serveri (Marshrutizator) mavjud bo'lsa, shuni tanlang, displeyga avtomatik ravishda IP-manzil ajratiladi. Agar siz DHCP (Dynamic Host Configuration Protocol) serveri funksiyasiga ega bo'lgan keng polosali marshrutizator yoki keng polosali modemdan foydalanayotgan bo'lsangiz. IP-manzil avtomatik ravishda aniqlanadi.
- 6 Tugallaganingizdan keyin **EXIT** tugmasini bosing.



EHITIYOT BO'LING

- Modulli telefon kabelini LAN portiga ulamang.
- Turli ulash usullari mavjud bo'lganligi uchun telekommunikatsion operatoringiz yoki internet provayderingiz ko'rsatmalariga amal qiling.

Simsiz tarmoqqa ulanish

- 1 Asosiy menyularga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 **NETWORK (TARMOQ)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 3 **Network Setting (Tarmoqni sozlash)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing **OK** tugmasini bosing.
- 4 **Setting from the AP list (AP ro'yxatidan o'rnatish)** yoki **Simple setting (WPS-button mode) Oson o'rnatish (WPS-tugmasi rejimi)** ni tanlang.
-Setting from the AP list (AP ro'yxatidan o'rnatish)
 Simsiz tarmoqqa ulanish uchun AP-ni tanlang.
-Simple setting (WPS-button mode) Oson o'rnatish (WPS-tugmasi rejimi)
 Marshrutizatorga osongina ulanish uchun PBC-ni qo'llab-quvvatlaydigan simsiz marshrutizatoridagi tugmani bosing.
- 5 **TUGALLAGANINGIZDAN KEYIN** Exit tugmasini bosing.



EHTIYOT BO'LING

- Display moddiy tarmoqqa ulanmagunicha tarmoqni o'rnatish menyusidan foydalanib bo'lmaydi.
- Turli ulash usullari mavjud bo'lganligi uchun telekommunikatsion operatoringiz yoki internet provayderingiz ko'rsatmalariga amal qiling.



ESLATMA

- Agar siz internetga to'g'ridan-to'g'ri displeyda kirmoqchi bo'lsangiz, internet ulanishi doimo yoqilgan bo'lishi kerak.
- Agar internetga kira olmasangiz, tarmog'ingizdagi ShKdan tarmoq holatlarini tekshiring.
- Siz Tarmoq parametrlari-dan foydalanganingizda LAN kabelini yoki marshrutizatoridagi DHCP-ni yoqilganligini tekshiring.
- Agar siz tarmoq parametrlarini o'rnatishni tugallamasangiz, tarmoq to'g'ri ishlamasligi mumkin.

- IPv6'ni qo'llab-quvvatlaydigan tarmoqqa ulanganda, qo'shimcha simli/simsiz tarmoq sozlanishida IPv4/IPv6'ni tanlashingiz mumkin. Lekin IPv6 ulanishi faqat avtomatik ulanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Tarmoqni o'rnatish uchun maslahatlar

- Bu display bilan standart LAN kabelidan foydalaning. Cat5 yoki RJ45 ulovchisi bilan yaxshiroq.
- O'rnatish vaqtidagi ko'pgina tarmoq ulanishi muammolarini marshrutizator yoki modemni qayta o'rnatish orqali hal qilish mumkin. Displayni uy tarmog'iga ulagandan keyin tezda uy tarmog'i marshrutizatori yoki kabelli modemni o'chiring va/yoki elektr tarmog'iga ulash shnurini uzing. Keyin uni yoqing va/yoki elektr tarmog'iga ulash shnurini ulang.
- Internet provayderiga (ISP) bog'liq ravishda internet xizmatidan foydalanishni mumkin bo'lgan qurilmalar soni tegishli xizmat ko'rsatish shartlari bilan cheklab qo'yilishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun internet provayderingizga murojaat qiling.
- Aloqa xatolari/internet ulanishingiz yoki boshqa ulangan qurilma bilan bog'liq bo'lgan noto'g'ri ishlashlar tufayli display va/yoki internet ulanishi xususiyatining har qanday noto'g'ri ishlashi uchun LG javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- Internet ulanishingiz doirasidagi muammolar uchun LG javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- Agar tarmoq ulanishi foydalanilayotgan tarkib talablariga javob bermagan hollarda kutilmagan natijalarga ega bo'lishingiz mumkin.
- Internet ulanishingizni ta'minlab beruvchi Internet provayderingiz (ISP) tomonidan o'rnatilgan ma'lum cheklanishlar tufayli ayrim internet ulanishi operatsiyalaridan foydalanib bo'lmashligi mumkin.
- Internet provayder tomonidan olinadigan har qanday to'lovlar, jumladan ulanish uchun to'lovlarni to'lash uchun faqat o'zingiz javobgardirsiz.
- Bu displeyga simli ulanishdan foydalanganda 10 Base-T yoki 100 Base-TX LAN porti talab qilinadi. Agar internet provayderingiz bunday ulanishga ruxsat bermasa, siz displeyga ulana olmaydiz.
- DSL xizmati uchun DSL modemi talab qilinadi va kabelli xizmat uchun kabelli model talab qilinadi. Kirish usuli va internet provayderingiz bilan tuzilgan obuna kelishuviga bog'liq ravishda siz ushbu displeyda internet ulanishi xususiyatidan foydalana olmasligingiz yoki bir vaqtning o'zida ulanishingiz mumkin bo'lgan qurilmalar soni cheklanishi mumkin. (Agar internet provayderingiz obunangizni bitta qurilmaga cheklasa, ShK ulangan hollarda ushbu displeyni ulashga ruxsat berilmasligi mumkin.)

- Internet provayderingiz siyosatlarini va cheklavlariga bog'liq ravishda marshrutizatoridan foydalanishga ruxsat berilmasligi yoki undan foydalanish cheklanishi mumkin. Batafsil ma'lumotlar olish uchun bevosita internet provayderingizga murojaat qiling.

Simsiz tarmoqni o'rnatish uchun maslahatlar

- Simsiz tarmoqlarning ishlashiga 2,4 GGz chastotada ishlovchi boshqa qurilmalar (simsiz telefonlar, Bluetooth qurilmalari yoki mikroto'liqlik pechlar) xalaqitlar hosil qilishlari mumkin. Boshqa Wi-Fi qurilmalari kabi 5 GGz chastotada ishlovchi boshqa qurilmalar ham xalaqitlar hosil qilishlari mumkin.
- Atrofdagi simsiz muhit simsiz tarmoqning sekin ishlashiga sabab bo'lishi mumkin.
- Kirish nuqtasi uchun simsiz ulanishni qo'llab-quvvatlaydigan kirish nuqtasi qurilmasi talab qilinadi va ushbu qurilmada simsiz ulanish xususiyati yoqilgan bo'lishi kerak. Kirish nuqtangizda simsiz ulanishdan foydalanish mumkinligi to'g'risida bilish uchun xizmat ko'rsatuvchi provayderga murojaat qiling.
- Kirish nuqtasi ulanishi uchun SSID va kirish nuqtasining xavfsizlik parametrlarini tekshiring. SSID va kirish nuqtasining xavfsizlik parametrlari to'g'risida ma'lumotlar olish uchun tegishli hujjatlarga qarang.
- Tarmoq qurilmalaridagi (simli/simsiz liniya marshrutizatori, xab) noto'g'ri parametrlar televizorning sekin ishlashi yoki to'g'ri ishlamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Qurilmalarni tegishli qo'llanmaga muvofiq to'g'ri o'rnatish va tarmoqni sozlang.
- Kirish nuqtasi ishlab chiqaruvchisiga bog'liq ravishda ulash usuli farq qilishi mumkin.

Tarmoq holati

- 1 Asosiy menyularga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 **NETWORK (TARMOQ)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 3 **Network Status (Tarmoq holati)**-ni tanlash uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing.
- 4 Tarmoq holatini tekshirish uchun **OK** tugmasini bosing.
- 5 Tugallaganingizdan keyin **EXIT** tugmasini bosing.


Parametr	Tavsif
O'rnatish	Tarmoqni o'rnatish menyusiga qayting.
Test	Tarmoqni o'rnatgandan keyin joriy tarmoq holatini sinab ko'ring.
Yopish	Avvalgi menyuga qayting.

Mening mediamdan foydalanish

USB saqlash qurilmalarini ulash

USB flesh xotirasi yoki tashqi qattiq disk kabi USB xotira jamlovchilarini displeyga ulashingiz va multimedia xususiyatlaridan foydalanishingiz mumkin. USB flesh xotirasi yoki USB xotira kartasi o'qigichini displeyga quyidagi rasmda ko'rsatilgani kabi ulang.

My Media (Mening mediam) ekrani namoyish qilinadi.



EHTIYOT BO'LING

- **MY MEDIA (MENING MEDIAM)** menyusi faollashtirilgan vaqtda displeyni o'chirmang yoki USB saqlash qurilmasini sug'urib olmang, chunki bu fayllarning yo'qotilishiga yoki USB saqlash qurilmasining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- USB saqlash qurilmasiga saqlangan fayllaringizni tez-tez zaxiralang, chunki siz fayllaringizni yo'qotishingiz yoki shikastlashingiz va bu kafolat bilan qamrab olinmasligi mumkin.

USB saqlash qurilmalaridan foydalanish

uchun maslahatlar

- Faqat USB xotira jamlovchisigina tanib olinadi.
- Agar USB saqlash qurilmasi USB xabi orqali ulansa, qurilmani tanib olib bo'lmaydi.
- Avtomatik tanib olish dasturidan foydalanuvchi USB saqlash qurilmasi tanib olinmasligi mumkin.
- O'z drayveridan foydalanuvchi USB xotira jamlovchisi tanib olinmasligi mumkin.
- USB saqlash qurilmasini tanib olish tezligi har bir qurilmaga bog'liq bo'lishi mumkin.
- Ulangan USB xotira jamlovchisi ishlayotgan vaqtda displeyni o'chirmang yoki rozetkadan uzamang. Qurilma birdaniga ajratilgan yoki uzilganda saqlangan fayllar yoki USB xotira jamlovchisi shikastlanishi mumkin.
- ShKda sun'iy o'zgartirilgan USB xotira jamlovchisini ulamang. Bu qurilma mahsulotning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin. Faqat oddiy musiqa fayllari, tasvir fayllari yoki kino fayllari bo'lgan USB xotira qurilmasi-dan foydalaning.
- Faqat FAT32 fayl tizimida formatlangan USB xotira qurilmasidan foydalaning. Windows tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydigan yordamchi dasturlar tomonidan formatlangan xotira qurilmalari tanib olinmasligi mumkin.
- Tashqi quvvat ta'minotini talab qiluvchi USB xotira jamlovchisiga elektr tokini ulang (0,5 A dan ortiq). Agar berilmasa, qurilma tanib olinmasligi mumkin.
- USB xotira jamlovchisini qurilma ishlab chiqaruvchisi tomonidan berilgan kabel bilan ulang.
- Ayrim USB saqlash qurilmalari qo'llab-quvvatlanmasligi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- USB xotira jamlovchisining fayllarni tartiblash usuli Window XP-nikiga o'xshash va monitor 100 tagacha ingliz harflarini taniy olishi mumkin.
- Muhim fayllaringizni zaxiralang, chunki USB saqlash qurilmasiga saqlangan ma'lumotlar shikastlanishi mumkin. Biz har qanday ma'lumotlarni yo'qotilishi uchun javobgarlikni o'z zimmamizga olmaymiz.
- Agar USB qattiq diskida tashqi quvvat manbai mavjud bo'lmasa, USB qurilmasi tanib olinmasligi mumkin. Shuning uchun tashqi quvvat manbaini ulang.
- Tashqi quvvat manbai uchun quvvat adapt-eridan foydalaning.
- Agar USB xotira qurilmasi bir nechta qismlarga ega bo'lsa yoki siz USB ko'p kartalar o'qigichidan foydalansangiz, siz 4 tagacha qismdan yoki USB xotira qurilmalaridan foydalana olasiz.
- Agar USB xotira qurilmasi USB ko'p kartalar o'qigichiga ulangan bo'lsa, uning hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanmasligi mumkin.
- Agar USB xotira qurilmasi to'g'ri ishlamasa, uni uzib ulang.
- USB qurilmasining qanchalik tez aniqlanishi qurilmadan qurilmaga farq qiladi.
- Agar USB Kutish rejimida ulansa, displey yonganda ma'lum qattiq disk avtomatik ravishda yuklanishi mumkin.
- Tavsiya qilingan sig'im USB tashqi qattiq diskleri uchun 1 TB yoki undan kamroq va USB xotira qurilmalari uchun 32 GB yoki undan kamroq.
- Tavsiya qilingan sig'imga qaraganda kattaroq sig'imga ega bo'lgan har qanday qurilma to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Agar Energiyani tejash funktsiyasiga ega bo'lgan USB tashqi qattiq diski to'g'ri ishlamasa, u to'g'ri ishlashi uchun qattiq diskni o'chirib yoqing.
- USB 2.0 dan pastroq bo'lgan USB xotira jamlovchilari ham qo'llab-quvvatlanadi. Biroq ular videolar bilan ishlamasliklari mumkin.
- Bitta papka ostida eng ko'pi bilan 999 ta tag papkalar yoki fayllar tanib olinishi mumkin.
- Sertifikatga ega bo'lgan USB xotira jamlovchisi va kabelidan foydalanish tavsiya qilinadi. Aks holda USB xotira jamlovchisi tanib olinmasligi yoki o'ynatish xatoligi yuz berishi mumkin.
- SuperSign Menejeri tomonidan tarqatiladigan va saqlanadigan fayllarni o'ynatish uchun faqat USB xotira kartasidan foydalanish mumkin. USB qattiq diski yoki ko'p kartalar o'qigichi ishlamaydi.
- Faqat FAT 32 fayllar formatida formatlangan xotira jamlovchisi SuperSign Menejeri tomonidan tarqatiladigan va saqlanadigan fayllarni o'ynatishi mumkin.
- USB 3.0 xotira jamlovchisi ishlamasligi mumkin.
- Yuqori haroratli muhitlarda ayrim USB saqlash qurilmalaridagi ma'lumotlar shikastlanishi mumkin.
- Ikkitadan ortiq USB portlarida tarkiblarni bir vaqtda o'ynatmaslik tavsiya qilinadi.

Fayllarni ko'rib chiqish

USB saqlash qurilmasiga saqlangan tasvirlarni ko'ring.

- 1 Asosiy menyuga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 Qidirish tugmasini bosing va **MY MEDIA (MENING MEDIAM)**-ga o'ting va **OK** tugmasini bosing.
- 3 Qidirish tugmasini bosing va o'zingiz xohlagan **Movie List (Filmlar ro'yxati)**, **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)**, **Music List (Musiqalar ro'yxati)** yoki **Content List (Tarkiblar ro'yxatiga)** o'ting va **OK** tugmasini bosing.

Qo'llab-quvvatlanadigan fayl formati

Turi	Qo'llab-quvvatlanadigan fayl formati			
Film		Kodek	Media konteyneri	Profil
	Video	MPEG1 / MPEG2	DAT, MPG, MPEG, TS, TP	1080P @ 30 fps
		MPEG4 (DivX 3.11, DivX 4, DivX 5, DivX 6, Xvid 1.01, Xvid 1.02, Xvid 1.03, Xvid 1.10-beta1/2)	AVI, DIVX, MP4, MKV, TS, TRP	1080P @ 30 fps
		H.264	AVI, MP4, MKV, TS, TRP, TP	1080P @ 60 fps
	Audio	MP3	MP3	8 kbit/sdan 320 kbit/sgacha (Ma'lumotlarni uzatish tezligi) 16 kGzdan 48 kGzgacha (Namunalar olish chastotasi)
		AC3	AC3	32 kbit/sdan 640 kbit/sgacha (Ma'lumotlarni uzatish tezligi) 32 kGz, 44,1 kGz, 48 kGz (Namunalar olish chastotasi)
		MPEG	MP3	32 kbit/sdan 448 kbit/sgacha (Ma'lumotlarni uzatish tezligi) 16 kGzdan 48 kGzgacha (Namunalar olish chastotasi)
		AAC, HEAAC	MP4	8 kGzdan 48 kGzgacha (Namunalar olish chastotasi)
		LPCM	AVI, WAV	64 kbit/sdan 1,5 Mb/sgacha (Ma'lumotlarni uzatish tezligi) 8 kGzdan 48 kGzgacha (Namunalar olish chastotasi)
	Ma'lumotlarni uzatish tezligi: 8 kbit/sdan 320 kbit/sgacha (MP3)			
	Tashqi subtitrlar formati: *.smi/*.srt/*.sub(MicroDVD,Subviewer1.0/2.0)/*.ass/*.ssa/*.txt(TMPlayer)/*.psb(PowerDivX)			
	Ichki subtitrlar formati: faqat XSUB (DivX6 fayllarida foydalaniluvchi subtitrlar formati)			

Turi	Qo'llab-quvvatlanadigan fayl formati
Fotosurat	JPEG Minimum: 64 x 64 Maksimum: Normal tur: 15360 (E) x 8640 (B) Progressiv tur: 1920 (E) x 1440 (B) BMP Minimum: 64 x 64 Maksimum: 9600 x 6400 PNG Minimum: 64 x 64 Maksimum: O'ralgan: 1200 x 800 O'ralmagan: 9600 x 6400 Qo'llab-quvvatlanmaydigan fayllar avvaldan belgilangan tasvircha shaklida namoyish qilinadi.
Musiq	mp3 [Ma'lumotlarni uzatish tezligi] 32 kb/s ~ 320 kb/s [Raqamlashtirish chastotasi] 16 kGz ~ 48 kGz [Qo'llab-quvvatlash] MPEG1, MPEG2, Layer2, Layer3 AAC [Ma'lumotlarni uzatish tezligi] Erkin format [Raqamlashtirish chastotasi] 8 kGz ~ 48 kGz [Qo'llab-quvvatlash] ADIF, ADTS M4A [Ma'lumotlarni uzatish tezligi] Erkin format [Raqamlashtirish chastotasi] 8 kGz ~ 48 kGz [Qo'llab-quvvatlash] MPEG-4 OGG [Ma'lumotlarni uzatish tezligi] Erkin format [Raqamlashtirish chastotasi] ~ 48 kGz [Qo'llab-quvvatlash] Vorbis WMA [Ma'lumotlarni uzatish tezligi] 128 kb/s ~ 320 kb/s [Raqamlashtirish chastotasi] 8 kGz ~ 48 kGz [Qo'llab-quvvatlash] WMA7, 8, 9 standarti WMA 10 Pro [Ma'lumotlarni uzatish tezligi] ~ 768 kb/s [Kanal / Raqamlashtirish chastotasi] M0 : 2 / 48 kGzgacha M1 : 5,1 / 48 kGzgacha M2 : 5,1 / 96 kGzgacha [Qo'llab-quvvatlash] WMA 10 Pro
Kontent (SuperSign dasturidan foydalan- ganda)	Fayl kengaytmalari: *.cts/ *.sce Film Fayl kengaytmalari: *.mpg/*.mpeg/*.dat/*.ts/*.trp/*.tp/*.mp4/*.mkv/*.avi/*.avi(motion JPEG)/ *.mp4(motion JPEG)/*.mkv(motion JPEG) Video format: MPEG1, MPEG2, MPEG4,H.264, DivX 3.11, DivX 4, DivX 5, DivX 6, Xvid 1.00,Xvid 1.01, Xvid 1.02, Xvid 1.03,Xvid 1.10-beta1/2, JPEG Audio format: MP3, Dolby Digital, LPCM, AAC, HE-AAC

Kinolarni ko'rish

USB saqlash qurilmasida saqlangan film fayllarini o'ynatadi.

- 1 Asosiy menyuga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 Yo'naltirish tugmasini bosing va **MY MEDIA (MENING MEDIAM)**-ga o'ting va **OK** tugmasini bosing.
- 3 **Movie List (Filmlar ro'yxati)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 4 O'zingiz xohlagan papkaga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 5 O'zingiz xohlagan faylga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
 - **Change Device (Qurilmani o'zgartirish)** : USB xotira qurilmasini tanlaydi. (Modelga bog'liq ravishda u qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)
 - **Go to root folder (Negiz papkaga o'tish)**: Mening mediamning bosh ekraniga qaytadi.
 - **Go to upper folder (Yuqori papkaga o'tish)** : Avvalgi ekranga qaytadi.
 - **Exit (Chiqish)** : My Media (Mening mediam)-dan chiqadi.
- 6 Kinoni o'ynatish vaqtida quyidagi parametrlarga kirish uchun **OK** tugmasini bosing.

Masofaviy tugma	Tavsif
	O'ynatishni to'xtatadi.
	Videoni o'ynatadi.
	O'ynatishni to'xtatib qo'yadi yoki qayta tiklaydi.
	Faylda orqaga qidiradi.
	Faylda oldinga qidiradi.
	Energiyani tejash uchun ekran ravshanligini sozlaydi.
SETTINGS	Option (Parametr) menyusini ko'rsatadi.
 BACK	To'liq ekrandagi menyuni yashiradi.
EXIT	Movie List (Filmlar ro'yxati) -ga qaytadi.
◀yoki▶	O'ynatish vaqtida fayldagi ma'lum nuqtaga o'tkazadi. Ma'lum nuqtaning vaqti holatlar satrida namoyish qilinadi. Ayrim fayllarda ushbu funktsiya to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Video fayllarni o'ynatishdan foydalanish uchun maslahatlar

- Ayrim foydalanuvchi tomonidan yaratilgan subtitrlar to'g'ri o'ynatilmagligi mumkin.
- Subtitrlarda ayrim maxsus belgilar qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Subtitrlarda HTML teglari qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Qo'llab-quvvatlanmaydigan tillardagi subtitrlardan foydalanib bo'lmaydi.
- Audio til o'zgartirilganda ekran vaqtinchalik uzulishlardan (tasvirning to'xtatilishi, tezroq o'ynatish va boshqalar) zararlanishi mumkin.
- Shikastlangan kino fayli to'g'ri o'ynatilmagligi yoki ayrim pleyer funktsiyalardan foydalanib bo'lmagligi mumkin.
- Ayrim kodlovchilar tomonidan yaratilgan kino fayllarini to'g'ri o'ynatib bo'lmagligi mumkin.
- Avar yoqilgan faylda video va audio tuzilmalari o'zaro aralashgan bo'lsa, video yoki audio chiqariladi.
- Kadrga bog'liq ravishda ko'pi bilan 1920 x 1080 @ 25/30p yoki 1280 x 720 @ 50/60p aniqlikdagi HD videolari qo'llab-quvvatlanadi.
- Kadrga bog'liq ravishda 1920 x 1080 @ 25/30p yoki 1280 x 720 @ 50/60p dan yuqoriroq tasvir aniqligiga ega bo'lgan videolar to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Ko'rsatilgan turdagi va formatdagidan boshqa kino fayllari to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- O'ynatish mumkin bo'lgan kino fayli uchun ma'lumotlarni uzatishning maksimal tezligi 20 Mb/soniya. (faqat Motion JPEG : 10 Mb/soniya)
- Biz H.264/AVC da 4.1 yoki undan balandroq daraja bilan kodlangan profillarning tekis o'ynatilishiga kafolat bermaymiz.
- DTS Audio kodegi qo'llab-quvvatlanmaydi.
- Fayl hajmi 30 GBdan katta bo'lgan kino faylini o'ynatish qo'llab-quvvatlanmaydi.
- DivX kino fayli va uning subtitrlar fayli bitta papkada joylashgan bo'lishi kerak.
- Video fayl va uning subtitrlar fayli nomi namoyish qilinishi uchun bir xil bo'lishi kerak.
- Yuqori tezlikni qo'llab-quvvatlamaydigan USB ulanishi orqali video o'ynatish to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- GMC (Global Motion Compensation) bilan kodlangan fayllarni o'ynatib bo'lmagligi mumkin.

Video parametrlari

- 1 Suzib chiquvchi menyularga kirish uchun **SETTINGS (PARAMETRLAR)**-ni bosing.
- 2 **Set Video Play. (Videoni ko'rishni sozlash.)**, **Set Video (Videoni sozlash)** yoki **Set Audio (Audioni sozlash)**-ga o'tish uchun Yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va press **OK** tugmasini bosing.

! ESLATMA

- **Movie List (Filmlar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** yoki **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-ga ta'sir qilmaydi. Shuning uchun ularga **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** yoki **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari ta'sir qilmaydi.
- **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** va **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari bir-biriga ta'sir qiladi.
- To'xtatgandan keyin video faylni o'ynatishda siz uni o'zingiz avval to'xtatgan joydan boshlab o'ynatishingiz mumkin.

Quyidagi menyularga kirish uchun **Set Video Play (Video o'ynatishni sozlash)**-ni tanlang:

Menyu	Tavsif
Picture Size (Rasm hajmi)	Kino o'ynatish vaqtida siz xohlagan tasvir formatini tanlaydi.
Audio Language (Audio Til)	Kino o'ynatish vaqtida audioning Til guruhini o'zgartiradi. Bitta audio trekka ega bo'lgan fayllarni tanlab bo'lmaydi.
Subtitle Language (Subtitr Til)	Tagsarlavhani yoqing/o'chiring.
Language (Til)	SMI subtitri uchun faollashtirilgan va subtitr doirasida tilni tanlashi mumkin.
Code Page (Kodlar sahifasi)	Subtitr uchun shriftni tanlash mumkin. Oldindan belgilanganiga o'rnatilganida umumiy menyu shriftidan foydalaniladi.
Sync (Sinxronlash)	Kino o'ynatish vaqtida subtitrni vaqt bo'yicha sinxronlashtirishni 0,5 son qadam bilan -10 son dan +10 son gacha sozlaydi.
Position (Holat)	Kino o'ynatish vaqtida subtitr holatini yuqoriga yoki pastga o'zgartiradi.
Size (Hajmi)	Kino o'ynatish vaqtida siz xohlagan subtitr hajmini tanlaydi.
Repeat (Takrorlash)	Kino o'ynatishning takrorlash funksiyasini yoqing/o'chiring. U yoqilganda papka ichidagi fayl qayta-qayta o'ynatiladi. Takroran o'ynatish o'chirilgan bo'lsa ham, fayl nomi avvalgisi bilan bir xil bo'lsa, u o'ynatishni ishga tushirishi mumkin.

! ESLATMA

- Subtitr fayl doirasida faqat 10 000 ta sinxronlashtirilgan bloklar qo'llab-quvvatlanishi mumkin.
- Video o'ynatish vaqtida siz **ARC** tugmasini bosish orqali Tasvir hajmini sozlashingiz mumkin.
- Sizning tilingizdagi subtitrlar faqat Ekran menyusi ham shu tilda bo'lgan hollardagina qo'llab-quvvatlanadi.
- Subtitr fayllarining tiliga bog'liq ravishda kodlar sahifasining parametrlari o'chirib qo'yilishi mumkin.
- Subtitr fayllari uchun mos kodlar sahifasini tanlang.

Fotosuratlarni ko'rish

USB saqlash qurilmasiga saqlangan tasvirlar fayllarini ko'ring.

- 1 Asosiy menyuga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 Yo'naltirish tugmasini bosing va **MY MEDIA (MENING MEDIAM)**-ga o'ting va **OK** tugmasini bosing.
- 3 Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni **bosing** va **OK** tugmasini bosing.
- 4 O'zingiz xohlagan papkaga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 5 O'zingiz xohlagan faylga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
 - **Change Device (Qurilmani o'zgartirish)** : USB xotira qurilmasini tanlaydi. (Modelga bog'liq ravishda u qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)
 - **Go to root folder (Negiz papkaga o'tish)**: Mening mediamning bosh ekraniga qaytadi.
 - **Go to upper folder (Yuqori papkaga o'tish)** : Avvalgi ekranga qaytadi.
 - **Exit (Chiqish)** : My Media (Mening mediam)-dan chiqadi.
- 6 Fotosuratlari ko'rish vaqtida siz quyidagi parametrlarga kirishingiz mumkin.

Menu	Tavsif
Slideshow (Slayd-shou)	Tanlangan fotosuratlar bilan slayd-shouni boshlaydi yoki to'xtatadi. Agar tanlangan fotosuratlar mavjud bo'lmasa, slayd-shou vaqtida joriy papkaga saqlangan barcha fotosuratlar namoyish qilinadi. Slayd-shou tezligini o'rnatish uchun Option (Parametr) -ni tanlang.
BGM	Fon musiqasini yoqadi yoki o'chiradi. Fon musiqasi papkasini o'rnatish uchun Option (Parametr) -ni tanlang. Siz Parametrni masofadan boshqarish pultidagi SETTINGS tugmasini bosish orqali sozlashingiz mumkin.
	Soat strelkasi yo'nalishida aylantiradi (90 °, 180 °, 270 °, 360 °).  ESLATMA • Qo'llab-quvvatlanadigan fotosurat hajmi cheklangan. Agar aylantirish kengligining tasvir aniqligi qo'llab-quvvatlanadigan tasvir aniqligi hajmidan katta bo'lsa, siz fotosuratni aylantira olmaysiz.
	Fotosuratlarni 100 %, 200 % yoki 400 % ga kattalashtiradi.
	Quvvatlarni tejash uchun ekran ravshanligini sozlaydi (Faqat Off (O'chirish) va Screen Off (Ekran o'chirish) ishlaydi).
Option (Parametr)	Option (Parametr) menyusini ko'rsatadi.
Hide (Yashirish)	Parametr oynasini yashiradi.
Exit (Chiqish)	Photo List (Fotosuratlar ro'yxati) -ga qayting.

Fotosurat parametrlari

- 1 **Option (Opsiya)** menyularini ko'rsatish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 **Set Photo View (Fotosuratlarni ko'rishni sozlash), Set Video. (Videonni sozlash)** yoki **Set Audio. (Audioni sozlash)** -ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.

! ESLATMA

- **Movie List (Filmlar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** yoki **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-ga ta'sir qilmaydi. Shuning uchun ularga **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** yoki **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari ta'sir qilmaydi.
- **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** va **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari bir-biriga ta'sir qiladi.

Quyidagi menyularga kirish uchun **Setting Photo View (Fotosuratlarni ko'rishni o'rnatish)**-ni tanlang:

Menu	Tavsif
Slide Speed (Slayd tezligi)	Slayd-shou tezligini tanlang. (Variantlar: Tez, O'rtacha yoki Sekin.)
BGM	Fon musiqasi uchun musiqa papkasini tanlaydi.
Repeat (Takrorlash)	Fon musiqasini takroran o'ynatadi.
Random (Tasodifiy)	Fon musiqasini tasodifiy tartibda o'ynatadi.

Musiqa tinglash

USB saqlash qurilmasiga saqlangan musiqa fayllarini o'ynatadi.

- 1
- Asosiy menyuga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2
- Yo'naltirish tugmasini bosing va **MY MEDIA (MENING MEDIAM)**-ga o'ting va **OK** tugmasini bosing.
- 3
- Music List (Musiqalar ro'yxati)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 4
- O'zingiz xohlagan papkaga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 5
- O'zingiz xohlagan faylga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
-
- Change Device (Qurilmani o'zgartirish)** : USB xotira qurilmasini tanlaydi. (Modelga bog'liq ravishda u qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)
-
- Go to root folder (Negiz papkaga o'tish):** Mening mediamning bosh ekraniga qaytadi.
-
- Open Music Player (Musiqa pleyerini ochish):** Musiqa uchun parametrlar oynasini ochadi. Bu xususiyat faqat o'ynatish vaqtida faollashtiriladi.
-
- Go to upper folder (Yuqori papkaga o'tish)** : Avvalgi ekranga qaytadi.
-
- Exit (Chiqish)** : My Media (Mening mediam)-dan chiqadi.
- 6
- Musiqa ijro etilayotgan vaqtda quyidagi sozlamalarga kirish uchun **OK**-ni bosing.


Masofaviy tugma	Tavsif
	Faylni o'ynatishni to'xtatadi va Music List (Musiqalar ro'yxati) -ga o'tkazadi.
	Musiqa faylini o'ynatadi.
	O'ynatishni to'xtatib qo'yadi yoki qayta tiklaydi.
	Avvalgi faylga o'tkazadi. Avval musiqa ijro etilmagan bo'lsa, joriy musiqa boshidan ijro etiladi.
	Keyingi faylga o'tkazadi.
	Quvvatlarni tejash uchun ekran ravshanligini sozlaydi (Faqat Off (O'chirish) va Screen Off (Ekranni o'chirish) ishlaydi).
SETTINGS	Option (Parametr) menyusini ko'rsatadi.
 BACK	Parametr oynasini yashiradi.
EXIT	Music List (Musiqalar ro'yxati) -ga qaytaradi.
 yoki 	O'ynatish vaqtida fayldagi ma'lum nuqtaga o'tkazadi. Ma'lum nuqtaning vaqti holatlar satrida namoyish qilinadi. Ayrim fayllarda ushbu funktsiya to'g'ri ishlamasligi mumkin.

Musiqqa fayllarini o'ynatish uchun maslahatlar

- Bu qurilma ID3 tegi ichki qurilgan MP3 fayllarini qo'llab-quvvatlamaydi.

! ESLATMA

- Shikastlangan yoki buzilgan musiqqa fayli o'ynatilmaydi, biroq o'ynatish vaqtida 00:00 namoyish qilinadi.
- Pullik xizmatdan yuklab olingan mualliflik huquqlari himoyasiga ega bo'lgan musiqqa ishga tushmaydi, biroq o'ynatish vaqtida mos bo'lgan ma'lumotlar namoyish qilinadi.
- Agar **OK**,  tugmalarini bossangiz, ekran saqlagichi to'xtaydi.
- Masofadan boshqarish pultidagi , , , ,  tugmalaridan ham bu rejimda foydalanib bo'ladi.
- Siz  tugmasidan keyingi musiqqa faylini va  tugmasidan avvalgi musiqani tanlash uchun foydalanishingiz mumkin.



Musiqqa parametrlari

- 1 Suzib chiquvchi menyularga kirish uchun **SETTINGS** tugmasini t bosing .
- 2 **Set Audio Play (Audio eshitishni sozlash)** yoki **Set Audio (Audio sozlash)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.

! ESLATMA

- **Movie List (Filmlar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** yoki **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-ga ta'sir qilmaydi. Shuning uchun ularga **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** yoki **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari ta'sir qilmaydi.
- **Photo List (Fotosuratlar ro'yxati)** va **Music List (Musiqalar ro'yxati)**-da o'zgartirilgan opsiya qiymatlari bir-biriga ta'sir qiladi.

Siz **Set Audio Play (Audio o'ynatishni sozlash)**-ni tanlaganingizda,

Menu	Tavsif
Repeat (Takrorlash)	Musiqqa o'ynatishni takrorlaydi.
Random (Tasodifiy)	Musiqqa yo'lakchalarini tasodifiy tartibda o'ynatadi.

arkiblar ro'yxati-ni ko'rish

Export (Eksport) funksiyasi bilan tashqi faylga saqlangan fayllarni SuperSign Software (SuperSign dasturida) ijro qilish mumkin.

- 1 Asosiy menyuga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 Yo'naltirish tugmasini bosing va **MY MEDIA (MENING MEDIAM)**-ga o'ting va **OK** tugmasini bosing.
- 3 Contents List (Tarkiblar ro'yxati)-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni **bosing** va **OK** tugmasini bosing.
- 4 O'zingiz xohlagan papkaga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 5 O'zingiz xohlagan faylga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
 - **Change Device (Qurilmani o'zgartirish)** : USB xotira qurilmasini tanlaydi. (Modelga bog'liq ravishda u qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.)
 - **Go to root folder (Negiz papkaga o'tish)**: Mening mediamning bosh ekraniga qaytadi.
 - **Go to upper folder (Yuqori papkaga o'tish)** : Avvalgi ekranga qaytadi.
 - **Exit (Chiqish)** : My Media (Mening mediam)-dan chiqadi.



ESLATMA

- **Contents List (Tarkiblar ro'yxati)**-dagi media fayllarini o'ynatish vaqtida faqat **BACK**, **EXIT** yoki ovoz balandligi tugmalari mavjud bo'ladi. **BACK** yoki **EXIT** tugmalarini tanlash media fayllarini o'ynatishni to'xtatadi va **Contents List (Tarkiblar ro'yxati)**-ga qaytaradi.
- SuperSign dasturiy ta'minotidan foydalanuvchi taqsimlash xususiyatidan foydalanganda tarkiblarni saqlash uchun foydalaniladigan xotira qurilmasi qolgan xotira joyiga bog'liq ravishda aniqlanadi. (Eslatma: Agar 1 va 2 USB portlaridagi xotira joyi bir xil bo'lsa, tarkiblar USB port 1 ga ulangan xotira qurilmasiga saqlanadi. (Modelga bog'liq ravishda u qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.))
- Agar USB qurilmasida AutoPlay papkasi mavjud va undagi fayllar qo'llab-quvvatlanadigan formatda bo'lsa, USB qurilmasi monitorga ulanganda ular avtomatik ravishda o'ynatilishi mumkin.
- Ikkitadan ortiq USB portlarida tarkiblarni bir vaqtda o'ynatmaslik tavsiya qilinadi.
- Taqsimlash va tarkiblar rejalarini SuperSign dasturiy ta'minoti orqali o'ynatishga nisbatan so'nggi marta bajarilgan reja o'ynatiladi.

Qo'llab-quvvatlanuvchi video kodek

Kengaytirma	Kodek	
.asf .wmv	Video	VC-1 Simple va Asosiy proffillar
	Audio	WMA Standard, WMA 10 Professional
.divx .avi	Video	DivX3.11, DivX4, DivX5, DivX6, XViD, H.264/AVC, Motion Jpeg, MPEG-4 Part2
	Audio	MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3), Dolby Digital, LPCM, ADPCM, DTS
.mp4 .m4v .mov	Video	H.264/AVC, MPEG-4 Part2
	Audio	AAC, MPEG-1 Layer III (MP3)
.3gp .3g2	Video	H.264/AVC, MPEG-4 Part2
	Audio	AAC, AMR-NB, AMR-WB
.mkv	Video	H.264/AVC
	Audio	HE-AAC, Dolby Digital,
.ts .trp .tp .mts .m2ts	Video	H.264/AVC, MPEG-2
	Audio	MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3), Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, PCM
.mpg .mpeg	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	MPEG-1 Layer I, II, MPEG-1 Layer III (MP3), AAC
.vob	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	Dolby Digital, MPEG-1 Layer I, II, DVD-LPCM

Video fayllarini o'ynatish uchun maslahatlar

- Shikastlangan kino fayli to'g'ri o'ynatilmaligi yoki ayrim pleyer xususiyatlaridan foydalanib bo'lmasligi mumkin.
- Ayrim kodlovchilar tomonidan yaratilgan kino fayllarini to'g'ri o'ynatib bo'lmasligi mumkin.
- Ko'rsatilgan turdagi va formatdagidan boshqa kino fayllari to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- O'ynatish mumkin bo'lgan kino fayli uchun ma'lumotlarni uzatishning maksimal tezligi 20 Mb/soniya. (Motion JPEG uchun: faqat 10 Mbit/s)
- Biz H.264/AVC da 4.1 yoki undan balandroq daraja bilan kodlangan proffillarning tekis o'ynatilishiga kafolat bermaymiz.
- 50 MBdan kattaroq video fayllarni mobil qurilmalardan to'g'ri yuklab bo'lmasligi mumkin. Biz shunday fayllarni USB/SD xotira qurilmalari orqali o'ynatishni tavsiya qilamiz.
- [Faqat Ultra HD modellar uchun] Ultra HD tasvir: 3840 X 2160
LG Electronics tomonidan rasman taqdim etilgan tarkibdan boshqa ayrim HEVC-kodlangan Ultra HD videolarni o'ynatib bo'lmasligi mumkin.

Kengaytirma	Kodek	
.mkv .mp4 .ts	Video	H.264/AVC, HEVC
	Audio	Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, HE-AAC

- Ayrim kodeklardan dasturiy ta'minot yangilanganidan keyin foydalanish mumkin.

PARAMETRLARNI O'ZGARTIRISH

Asosiy menyularga kirish

- 1 Asosiy menyularga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 Quyidagi menyulardan biriga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 3 O'zingiz xohlagan o'rnatish yoki parametrga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 4 Tugallaganingizdan keyin **EXIT** tugmasini bosing. Avvalgi menyuga qaytganingizda **BACK** tugmasini bosing.
 - **PICTURE (TASVIR)** : Tasvir hajmi, sifati yoki effektini sozlaydi.
 - **AUDIO (AUDIO)** : Tovush sifati, effekti yoki balandligini sozlaydi.
 - **TIME (VAQT)** : Vaqt, sana yoki taymer funksiyasini o'rnatadi. Exit (Chiqish) : My Media (Mening mediam)-dan chiqadi.
 - **OPTION (PARAMETR)** : Umumiy parametrlarni sozlaydi.
 - **NETWORK (TARMOQ)** : Tarmoq parametrini o'rnatadi.
 - **MY MEDIA (MENING MEDIAM)** : USB qurilma yoki signage qurilmasiga (Ichki xotira) saqlangan film, fotosurat va musiqa tarkiblarini namoyish qiladi va o'ynatadi.

TASVIR parametrlari

- 1 Asosiy menyularga kirish uchun **SETTINGS**-ni bosing.
- 2 **PICTURE (TARMOQ)**-ga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
- 3 O'zingiz xohlagan o'rnatish yoki parametrga o'tish uchun yo'naltiruvchi tugmalarni bosing va **OK** tugmasini bosing.
Avvalgi darajaga qaytish uchun **BACK** tugmasini bosing.
- 4 Tugallaganingizdan keyin **EXIT** tugmasini bosing.
Avvalgi menyuga qaytganingizda **BACK** tugmasini bosing.

Mavjud tasvir parametrlari quyida bayon qilingan:

O'rnatish	Tavsif
 Energy Saving (Energiyani tejash)	Ekranning yuqori ravshanligini sozlash orqali quvvat iste'molini kamaytiradi. * Standart sozlamalarga qaytarish uchun Umumiy -> Boshlang'ich sozlanmalarga qaytarish .
	Daraja
	Off (O'chirish) Energy Saving (Energiyani tejash) funksiyasini o'chiradi.
	Minimum(Minimum)/ Medium (O'rtacha)/ Maximum (Maksimum) Fon ravshanligining eng yorqin darajasini tanlaydi.
	Screen Off (Ekran o'chirilgan) Ekran 3 soniyada o'chadi.
Smart Energy Saving (Energiyani aqlli tejash)	Fon ravshanligi va kontrastni ekran ravshanligiga bog'liq ravishda sozlaydi. * Standart sozlamalarga qaytarish uchun Umumiy -> Boshlang'ich sozlanmalarga qaytarish .
	Daraja
	Off (O'chirilgan) Energiyani aqlli tejash funksiyasini o'chiradi.
	On (Yoqilgan) Quvvat iste'molini energiyani aqlli tejash darajasida o'rnatilgan qiymat miqdorida tejash uchun Energiyani aqlli tejash funksiyasini yoqadi.
Picture Mode (Rasm rejimi)	Atrof yoki dasturni ko'rish uchun optimallashtirilgan rasm rejimini tanlaydi. * Standart sozlamalarga qaytarish uchun Umumiy -> Boshlang'ich sozlanmalarga qaytarish .
	Daraja
	Vivid (Jonli) Yorqin tasvirlarni namoyish qilish uchun kontrast, ravshanlik va tiniqlikni oshiradi.
	Standard (Standart) Tasvirlarni kontrast, ravshanlik va tiniqlikning standart darajalarida namoyish qiladi.
	APS APS (Avtomatik quvvatni saqlash) rejimi qorong'ilashtirish boshqaruvi orqali quvvat iste'molini kamaytiradi.
	Cinema (Kinoteatr) Kinolardan xuddi kinoteatrdan o'tirgan kabi rahatlanish uchun video tasvirlarni kinosifat ko'rinishga optimallashtiradi.
	Sport Oq, maysa yoki osmon moviyliги kabi asosiy ranglarni kuchaytirish orqali video tasvirni yuqori va dinamik harakatlar uchun optimallashtiradi.
	Game (O'yin) Video tasvirni ShKlar yoki o'yinlar kabi tezkor o'yinlar ekrani uchun optimallashtiradi.
	Calibration (Kalibrash) Standartga asoslangan holda foydalanuvchi tomonidan sozlanuvchi oq balansni qo'llaydi.
	Expert1-2 (Ekspert1-2) Ekspertlar va havaskorlarga eng yaxshi monitor ko'rishdan rahatlanishlariga imkon beruvchi tasvir sifatini sozlash uchun meny.
Aspect Ratio (Nisbat koeffitsiyenti)	Tasvirlarni optimal o'lchamlarida ko'rish uchun ularning o'lchamlarini o'zgartiradi.

O'rnatish	Tavsif	
Ekran (Faqat RGB rejimida)	ShK displeyining RGB rejimidagi parametrlarini sozlaydi.	
	Daraja	
	Resolution (Tasvir aniqligi)	Tegishli tasvir aniqligini tanlaydi.
	Auto Configure (Avtomatik sozlash)	Ekran holati, soat va fazani avtomatik sozlashga o'rnatadi. Konfiguratsiya qilish jarayoni borayotgan vaqtda namoyish qilinayotgan tasvir bir necha daqiqa turg'un bo'lmasligi mumkin.
	Position/Size/Phase (Joylashuvi/Hajmi/Faza)	Tasvir aniq bo'lmaganida, ayniqsa belgilar tebranib turganida avtomatik sozlashdan keyin parametrlarni sozlaydi.
	Reset (Qayta tiklash)	Parametrlarni boshlang'ich qiymatlariga qayta tiklaydi.

Asosiy tasvir parametrlari

O'rnatish	Tavsif
Backlight (Fon chirog'i)	Ekraning fon ravshanligini boshqarish orqali yorqinlikni sozlaydi. Agar siz ravshanlik darajasini kamaytirsangiz, ekran qorong'iroq bo'ladi va hech qanday video signali yo'qotilmasdan quvvat iste'moli kamaytiriladi.
Contrast (Kontrast)	Video signal gradiyentini orttiradi yoki kamaytiradi. Siz Contrast (Kontrast)-dan tasvirning ravshan qismi to'yingan bo'lgan hollarda foydalanishingiz mumkin.
Brightness (Ravshanlik)	Tasvirdagi signalning boshlang'ich darajasini sozlaydi. Siz Brightness (Ravshanlik)-dan tasvirning qora qismi to'yingan bo'lgan hollarda foydalanishingiz mumkin.
Sharpness (Aniqlik)	Tasvirning yorug' va qorong'i sohalari o'rtasidagi qirralarning sinuvchanlik darajasini sozlaydi. Bu daraja qanchalik past bo'lsa, tasvir shunchalik yumshoq bo'ladi.
Color (Rang)	Barcha ranglar intensivligini sozlaydi.
Tint (Tus)	Qizil va yashil darajalar o'rtasidagi balansni sozlaydi.
Color Temp. (Rang harorati)	Qizil kabi issiq ranglarni kuchaytirish uchun iliqqa yoki tasvirni ko'kimsiz qilish uchun sovuqqa o'rnatish.
Advanced Control (Qo'shimcha boshqaruv)/ Expert Control (Ekspert boshqaruvi)	Siz har bir Picture Mode (Rasm rejimi) uchun rasmni sozlashingiz yoki rasm tasviri parametrlarini ma'lum tasvirga ko'ra sozlashingiz mumkin. Avval kerakli Picture Mode (Rasm rejimi) -ni tanlang. * Bu parametrdan Picture Mode (Rasm rejimi) Vivid (Jonli) -ga o'rnatilgan hollarda foydalanib bo'lmaydi.
Picture Option (Tasvir parametri)	Qo'shimcha tasvir parametrini o'rnatadi.
Picture Reset (Tasvirni qayta tiklash)	Parametrlarni boshlang'ich qiymatlariga qayta tiklaydi.



ESLATMA

- Rasm rejimini tanlaganingizda tegishli menyular avtomatik ravishda o'rnatiladi.
- Energiyani aqlli tejash funksiyasidan foydalanganda harakatsiz tasvirlarning oq sohalarida ekran to'yingan bo'lib ko'rinishi mumkin.
- Agar Energiyani tejash Minimum, O'rtacha yoki Maksimumga o'rnatilgan bo'lsa, Energiyani aqlli tejash funksiyasi o'chirib qo'yiladi.
- Standart sozlamalarga qaytarish uchun **Umumiy -> Boshlang'ich sozlamalarga qaytarish.**

Qo'shimcha boshqaruv - Rasm rejimi (Standart/ APS/ Sport/ O'yin/ Kalibrlash)


O'rnatish	Tavsif
Dynamic Contrast (Dinamik kontrast)	Kontrastni tasvir yorqinligiga ko'ra optimal darajaga o'zgartiradi.
Dynamic Color (Dinamik rang)	Ranglarni tabiiyroq ko'rinishdagi ranglarga o'zgartiradi.
Color Gamut (Rang diapazoni)	Ifodalanishi mumkin bo'lgan ranglar diapazonini tanlaydi.
Skin Color (Teri rangi)	Teri rangini foydalanuvchi tomonidan ko'rsatilgan tarzda ko'rsatish uchun teri rangi spektrini alohida o'rnatish mumkin.
Sky Color (Osmon rang)	Osmon rang alohida o'rnatiladi.
Grass Color (Maysa rang)	Tabiiy rang spektri (o'tloq, do'nglik va hokazo) alohida o'rnatilishi mumkin.
Gamma	Kirish signaliga nisbatan tasvir signalining chiqishiga muvofiq gradatsion qiyshiq yoyini o'rnatadi.

Ekspert boshqaruvi - Rasm rejimi (Kinoteatr/ Ekspert1/ Ekspert2)

O'rnatish	Tavsif
Dynamic Contrast (Dinamik kontrast)	Kontrastni tasvir yorqinligiga ko'ra optimal darajaga o'zgartiradi. (Funksiya quyidagi rejimda ishlaydi - HDMI-DTV)
Color Gamut (Rang diapazoni)	Ifodalanishi mumkin bo'lgan ranglar diapazonini tanlaydi.
Edge Enhancer (Chetlarni kuchaytirish)	Videoning tiniqroq va aniqroq, shu bilan birga tabiiy bo'lgan kontur chiziqlarni ko'rsatadi.
Color Filter (Rang filtri)	Rang to'yinganligi va tusini aniq sozlash uchun RGB ranglaridagi maxsus rang spektrini filtrlaydi.
Color Temperature (Rang harorati)	Ekranning umumiy tonini istalgani kabi o'zgartiradi. Ekspert rejimida batafsil nozik sozlash Gamma usuli va boshqalar orqali o'rnatilishi mumkin.
Color Management System (Ranglarni boshqarish tizimi)	Bu ekspertlar test sxemasi bilan rangni sozlashlari uchun foydalanadigan tizimdir. Ular boshqa ranglarga ta'sir ko'rsatmagan holda oltita (Qizil / Yashil / Ko'k / Havorang / To'q qizil / Sariq) rang maydonidan tanlashlari mumkin. Normal tasvirlar uchun sozlashlar ranglarning sezilarli o'zgarishiga olib kelmaydi.

Tasvir parametri - HDMI(DTV) rejimi

O'rnatish	Tavsif
Noise Reduction (Shovqinni asaytirish)	Videoda ekran shovqinlarini kamaytiradi.
MPEG Noise Reduction (MPEG xalaqitlarini Kamaytirish)	Raqamli videoni siqish tufayli hosil bo'lgan shovqinlarni kamaytiradi.
Black Level (Qora darajasi)	Ekranning qoralik darajasidan (qora darajasi) foydalangan holda tasvir kirishining qora darajasiga mos bo'lishi uchun ekran ravshanligi yoki qoraligini sozlaydi. (Kirish signali asosida tavsiya etilgan parametrlar: RGB 0-255: Yuqori, RGB 16-235: Quyi, YCbCr: Quyi)
Real Cinema (Haqiqiy kinoteatr)	Ekranni kino ko'rish uchun optimallashtiradi.
